



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 7 - iyul

VI-63-122-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5152-sonli qarorining tumandagi ijrosi to'g'risida**

Angor tumanida jami 36 ta mahalla fuqarolar yig'inlari bo'lib, ulardan 4 tasida ko'p qavatli va ko'p xonadonli uylar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5152-sonli qarori 1-ilovasiga asosan, eksperiment tariqasida Angor tumanidagi "O'zbekiston", "Sharq guli", "Navbahor", "Navro'z", "Yangi turmish" mahallalardagi 26 ta ko'p qavatli uy-joylarni qamrab olgan 3 ta uy-joy mulkdorlari shirkatlarini maqbullashtirish hisobiga 1 ta "Angor-Boshqaruv-Servis" BSK boshqaruv tashkiloti tashkil etildi. Ushbu Boshqaruv tashkilotini tashkil etish jarayonida Angor tumanidagi 3 ta iqtisodiy nochor shirkatlar tugatildi.

Ushbu shirkatlarning jami 2,9 mlrd.so'm kredit qarzdorliklari mavjud bo'lib, shundan muddati o'tgan qarzdorliklari 2,8 mlrd.so'mni tashkil etgan. Debitor qarzdorliklari 204,3 mln.so'mdan oshib ketgan. Shuningdek, ushbu shirkatlar aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy texnika va boshqa vositalar bilan ta'minlanmagan hamda faoliyat olib borish uchun binosi ham mavjud bo'lmagan. Faoliyati bugungi kun talabiga javob bermagan. Boshqaruv tashkilotida 24 soat tunu-kun ishlaydigan avariya dispetcherlik xizmati tashkil etilgan bo'lib, aholining murojaatlarini joyida xal etish choralari ko'rilmoqda.

Shuningdek telegram ijtimoiy tarmog'ida boshqaruv tashkilotining telegram guruhi ochilib, barcha kommunal soha hamda mulkdorlar ulangan. Bugungi kunda boshqaruv tashkilotida 5 nafar ishchi xodim faoliyat yuritmoqda. Shundan doimiy ishchilar soni 3 nafarni tashkil etadi. "Angor Boshqaruv Servis" BSK boshqaruv tashkiloti tashkil etilganidan buyon hududdagi ko'p qavatli uylarni ta'mirlash va obodonlashtirish bo'yicha muayyan ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2 ta ko'p qavatli uylarning kirish yo'laklari ta'mirlandi, doimiy ravishda obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Boshqaruv tashkiloti tashkil etilmasdan oldin hududdagi shirkatlar tomonidan bir oyda o'rtacha 2-3 mln.so'm

miqdorida majburiy badal mablagʻlari yigʻilgan boʻlsa, bugungi kunda tashkil etilgan “Angor Boshqaruv Servis” BSK tomonidan bir oyda oʻrtacha 6-7 mln.soʻm majburiy badal mablagʻlari yigʻilishi rejalashtirilmogʻda. Boshqaruv tashkiloti tomonidan hududdagi boshqa tashkilotlar, Xususan 2 ta maktabgacha taʻlim tashkiloti, 2 ta maktab va 1 ta sogʻliqni saqlash muassasasiga xizmat koʻrsatish boʻyicha shartnomalar tuzish boʻyicha kelishuv ishlari olib borilmogʻda. Angor tumanida 26 ta koʻp qavatli uy-joylar mavjud boʻlib, koʻp qavatli uylarga tuman hokimining 2021-yil 30-oktabrdagi 215/8/109-Q/21 sonli qarori bilan **“Angor-Boshqaruv-Servis” MChJ** Boshqaruv servis kompaniyasi xizmat koʻrsata boshladi.

Koʻp qavatli uy-joy fondini 2021-2022 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik koʻrish boʻyicha “Sharq guli” mahallasida joylashgan № 72 koʻp qavatli uyning Respublika budjeti hisobidan 430 m<sup>2</sup> yoʻlaklari beton qoplamasi bilan qoplan. “Sharq guli” mahallasida joylashgan №72 koʻp qavatli uyning 70 p/m, “Navroʻz” mahallasida joylashgan №28-30-koʻp qavatli uylarning 75 p/m irrigatsiya tizimi yangidan qurildi. “Sharq guli” mahallasida joylashgan №75-koʻp qavatli uyga 1 ta, “Navroʻz” mahallasida joylashgan №30-koʻp qavatli uyga 1 ta, №10 koʻp qavatli uyga 1 ta, “Navbahor” mahallasida joylashgan №86 koʻp qavatli uyga 1 ta jami boʻlib 4 ta koʻp qavatli uyning hovlisiga bolalar maydonchalari oʻrnatildi.

Mahalliy budjet mablagʻlari hisobidan hamda homiylik hisobidan tumandagi 26 ta koʻp qavatli uylarning fasad qismi joriy taʻmirlandi.

Angor tuman hokimining qurilish masalalari boʻyicha oʻrinbosari U.Raxmatovning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Koʻp kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-5152-sonli Qaroriga asosan tumanda uy-joy kommunal infratuzilmasini boshqarishni takomillashtirish hamda koʻp qavatli uy-joylarni saqlash borasida olib borilayotgan ishlar toʻgʻrisidagi hisobotini eshitilib, masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Angor tuman hokimining qurilish masalalari boʻyicha oʻrinbosari U.Raxmatovning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Koʻp kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-5152-sonli Qaroriga asosan tumanda uy-joy kommunal infratuzilmasini boshqarishni takomillashtirish hamda koʻp qavatli uy-joylarni saqlash borasida olib borilayotgan ishlar toʻgʻrisidagi hisoboti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi oʻrinbosari (U.Raxmatov)ga masʼul tashkilot va korxonalar bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-5152-sonli Qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda ta‘minlash;

- ko‘p qavatli uy-joylarning tom, uylarning oldi (fasadi), yo‘laklar va yerto‘la qismini sifatli ta‘mirlash;

- ko‘p qavatli uy-joylarga tutash hududlarning sanitariya holati, obodonlashtirish va ko‘kalamlashtirish, maishiy chiqindilarning o‘z vaqtida olib ketilishi;

- ko‘p qavatli uy-joy fondi umumiy mulkini va unga tutash hududlarni saqlash uchun mulkdorlarning majburiy badallari yoki to‘lovlaridan tushadigan mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish;

- ko‘p xonadonli uylarning texnik holatini monitoring qilish, shu jumladan, ko‘p xonadonli uy-joy fondini mukammal va joriy ta‘mirlash ishlarini tashkil qilish;

- ko‘p qavatli uy-joylar uchun qurilgan umumiy hojatxonani doimiy ravishda tozalash va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish va yaroqsiz holatga kelib qolgan eski hojatxonalarni o‘rniga yangisini qurish choralarini ko‘rish;

- ko‘p kvartirali uylarni boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ko‘p kvartirali uylarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlar bo‘yicha hisob-kitob ishlarini yuritishda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash;

- tuman hududida joylashgan ko‘p kvartirali uylardan kelib tushadigan muammoli murojaatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish;

- aholiga sifatli va tezkor xizmat ko‘rsatish;

- ko‘p qavatli uylarda ta‘mirtalab bo‘lib qolgan joylarini ta‘mirlash ishlarini amalga oshirsin;

- tumandagi ko‘p qavatli uylarni mukammal va joriy ta‘mirlash yuzasidan mavjud muammolar bo‘yicha takliflarni xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tuman hokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari U.Raxmatov har oyning 5 sanasiga qadar xalq deputatlari Angor tumani Kengashiga yozma ma‘lumot kiritib borsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari

bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**